

Ikkinchi ta'lim va undan keyingi oliy ta'lim (2-mutaxassislik) abituriyentlari uchun adabiyot fanidan namunaviy savollar

1. Adabiyot nima degani? uning asosiy quroli nima?
2. Adabiyotda "obrazli fikrlash" deganda nimani tushunasiz. Timsollar asosida misollar keltiring.
3. Ertak, afsona va rivoyatlarning qay tarzda paydo bo'lgani haqida fikr yuriting.

4. "Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham O'zing mehri
Ilig'imsan, Vatanim."

Yuqoridagi O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning qo'shiqqa aylanib ketgan "Vatanim" nomli she'rini sharhlang va "Ona Vatan" tushunchasini izohlab bering.

5. Adabiyot kishining didi, axloqi, bilimlari boyishiga kuchli ta'sir ko'rsatishini biror asar misolida isbotlashga ruining.
6. Adabiy-badiiy asarning bugungi hayotimiz bilan qanday bog'liqligi, o'xshash va farqli tomonlari bor? Fikrlaringizni aniq misollar bilan tushuntirishga harakat qiling.
7. Maqol degani nima ma'noni anglatadi? Qanday maqollarni bilasiz? Bilgan maqollaringizni sharhlashga harakat qiling.
8. Maqollarning mazmun-mohiyati haqida gapiring, misollar keltirib o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
9. "Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas", "O'zgalar yurtida sulton bo'lguncha, o'z elingda cho'pon bo'l" kabi maqollar mazmun-mohiyati va yaratilish tarixi haqida fikr yuriting.
10. "Qazisan, qartasan – asl zotingga tortasan", "Olmaning tagiga olma tushadi", "Qarg'a qarg'aning ko'zini choqimaydi" kabi maqollarda gap aslida nima haqida ketmoqda? "qazi-qarta", "Olma", "Qarg'a" to'grisidami?
11. Xalq og'zaki ijodi deganda nimalarni tushunasiz? Xalq og'zaki ijodi janrlari haqida gapiring.
12. "Folklor" atamasi ilk bor qachon va kim tomonidan qo'llanilgan? Va uning mazmun-mohiyati haqida gapiring.
13. O'zbek folklorida epik, lirik va dramatik tur va undagi janrlarni izohlang.
14. Topishmoqlarning mazmun-mohiyati, vazifasi va shakli to'grisida misollar asosida malumot bering.
15. Maqol va topishmoqlarning bir-biridan farqli va o'xshash jihatlarini ko'rsatib bering.
16. Maqol haqida nima bilasiz?

17. Topishmoq va maqol o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni tushuntirib bering.
18. Mumtoz adabiyotimizdagi "chiston" nima? Undagi narsa va hodisalar qanday tarzda tasvirlanadi?
19. Ertak-topishmoq nima? Tushuntirib bering.
20. Nasriy va she'riy topishmoqlarga misol keltiring.
21. Topishmoqlarni aytish va uni yechish jarayoni qanday kichadi? Topishmoqlarni yechishda "jazolash", "shahar" yoki "qishloq" berish nimalarni anglatadi?
22. Bir predmetli va bir necha predmetli topishmoqlarga misol keltiring.
23. Topishmoqda yashiringan ma'no qanday shaklda ifodalanadi?
24. Xaql og'zaki ijodining qaysi janrini topishmoq deb ataymiz?
25. Buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy haqida nimalarni bilasiz? Kitoblarini sanang.
26. "Hadis" va "Muhaddis" so'zlarini misollar asosida izohlang.
27. Ulug' masalchi Ezopning "Yovvoyi echkilar va cho'pon", "Kiyik bilan tokzor", "Bori bilan laylak", "Ustiga tuz ortilgan eshak" kabi mashhur masallarini hikoya qiling va sharhlang.
28. Nima uchun bobolarimiz, katta yoshdagi kishilar o'z nutqlarida maqol va masallardan foydalanishadi?
29. "Ezop tilida so'zlashish" deganda nimani tushunasiz?
30. Ezop haqidagi rivoyatlarda uning donishmandligi nimalarda ko'rinadi?
31. Alisher Navoiyning do'st qanday bo'lishi haqidagi fikrlarini aytib bering.
32. "Kiyik va tokzor" masalida Ezop qanday insoniy fazilatlar haqida so'z yuritadi?
33. Do'stlik, sadoqat degan tushunchalarni qanday tushunasiz? Fikrlaringizni badiiy asarlar misolida izohlang.
34. "Bo'ri bilan laylak" masalida bo'ri qanday insonlarning majoziy obrazi?
35. Sabr-bardosh, qanoat degan tushunchalarning mazmunini izohlang ("Eshak bilan baqalar" masala misolida)
36. Ezop masallarining bugungi kundagi ahamiyati nimada?
37. "Masal" tushunchasining ta'rifini keltiring.
38. "Ramziy-majoziy" ma'noni qanday tushunasiz?
39. Dunyo adabiyotida birinchi masallarni yaratgan ijodkor kim?
40. Kimlar masalchilik rivojiga hissa qo'shdilar?
41. Sharq adabiyotidagi majoziy shaklda yozilgan asarlar haqida so'zlab bering.
42. Alisher Navoiyning qaysi asarlarida masallar, ibratli hikoyatlar ko'p keltirilgan?
43. O'zbek masalnavis shoirlaridan kimlarni bilasiz?
44. Qanday asarlarni ertak deb ataymiz?
45. Ertaklar qanday turlarga bo'linadi?
46. Sehrlil ertaklar haqida gapirib bering.
47. Qaysi ertaklarni majoziy ertaklar deymiz.
48. Ertakchi, masalchilar kimlar? Ulardan mashhurlari nomlarini ayting.
49. Ertaknavis adiblar haqida gapirib bering: jahon va o'zbek adiblari misolida.

50. Hamid Olimjon va unga zamondosh yana qaysi ijodkorlarni bilasiz? Ularning ijodi va taqdiri to'g'riida nimalarni eshitgansiz?
51. Ertak-doston qanday ehtiyojlardan kelib chiqib yaratiladi?
52. Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
53. Maqsad Shayxzodaning dramatik asarlaridagi tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar haqida so'zlab bering.
54. Jonatan Svift ijodi, u yashagan davr haqida nimalarni bilasiz?
55. "Gulliverning sayohatlari" asarining to'liq nomini ayting. Asarning yaratilishi va qismlari haqida gapiring.
56. "Gulliverning sayohatlari" romani asosida yaratilgan badiiy film bilan romanning o'zi orasida qanday farqlarni ko'rdingiz?
57. Hans Kristian Andersen hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
58. Andersen qalamiga mansub ertaklar qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
59. . Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida o'z bilganlaringizni gapirib bering.
60. Mirkarim Osim hayoti va ijodi haqida bilganlaringizni gapirib bering.
61. Mirkarim Osim o'z asariga nima uchun "Zulmat ichra nur" deb nom bergan? Bu sarlavhani tushuntirishga harakat qiling.
62. G'afur G'ulomga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilishining asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?
63. G'afur G'ulom asarlari asosida yaratilgan qanday film yoki spektaklni tomosha qilgansiz?
64. G'.Gulom asaridagi "O'grigina bola" ning haqiqiy o'g'rilardan farqi nima edi?
65. Oybekning hayoti va ijodi haqida bilganlaringizni gapirib bering.
66. Biz yashayotgan olamni "ona yer", "ona tabiat" atashimizning boisi nima?
67. Usmon Nosir she'rlarida tabiat qanday ranglarda, obrazli ifodalarda kuylanishini aniq misollarda ko'rsating.
68. Aruz, barmoq, erkin (sarbast), nasriy she'r kabi vaznlar haqida nimalarni bilasiz? Misollar asosida izohlang.
69. Mirtemir hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
70. Mirtemir ijodidagi bosh mavzular haqida so'zlang.
71. Asqad Muxtor hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
72. O'tkir Hoshimov haqida nimalarni bilasiz? Gapirib bering.
73. "Dunyoning ishlari" qissasining umumiy mazmuni haqida so'zlab bering.
74. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida tasvirlangan ona obrazi bilan barchamizning onalarimiz o'rtasida qanday o'xshashliklar ko'ramiz?
75. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarining "Alla" bobidagi ona allasining barcha uchun tushunarli, ya'ni umumbashariy hodisa ekanligi haqidagi gaplarni sharhlashga harakat qiling.
76. Boburnoma me'muar asar.
77. Z.Bobur ruboiylarida Vatan sog'inchi.
78. Alisher Navoiyning "Xamca" asari
79. Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonida Farxod obrazi talqini.
80. Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonida Shirin obrazi talqini.
81. Xamsachilik an'analari haqida nimalarni bilasiz? Jahon adabiyotida kimlar "Xamsa" yaratgan?

82. "Hayrat ul-abror" dostonining kompozitsion tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
83. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni qaysi jihatlari bilan Xamsachilikdagi yangilik hisoblanadi?
84. Ruboiy va qit'aning o'xshash va farqli jihatlari misollar asosida tushunturib bering.
85. Navoiyning "Lison ut-tayr" asari va uning yaralish tarixi haqida gapiring.
86. Z.M.Boburning tarjimayi holi haqida gapirib bering.
87. Ruboiy janri haqida malumot bering. Bobur ruboiylari haqida misollar asosida gapiring.
88. "Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi" ruboiysida shoir(Bobur) nega o'zini tolesiz(baxtsiz) deb ataydi? Uning nazaridagi baxtli odam kim?
89. Boburning she'riy mahoratini ruboiy va tuyuqlar misolida ko'rsatib bering.
90. "Boburnoma" asarining bugungi kundagi ahamiyatli jihatlari haqida ayting.